

**KLIMAKTERIK VA REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA
UROGENITAL KANDIDOZ UCHRASH HOLATINI MIKROSKOPIK
SURTMA YORDAMIDA BAHOLASH**

Kurbanova Zumrad Chutbayevna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Gematologiya transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi professori

Karimova Aziza Anvarovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Gematologiya transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Inson tanasining turli muhitlarida yashovchi mikroorganizmlar jamoasi mikrobiot deb nomlanadi. Mikroorganizmlar ayniqsa inson tanasining sekretsiya mahsulotlari so‘lak, siydir, balg’am, vaginal suyuqliklarda hayot kechiradi. Katta yoshli odamning o‘rtacha 1-1.5 kg massasini mikrobiot tashkil qiladi. Kandidalar ba‘zan inson normal mikrobioti tarkibida uchrasada ayniqsa so‘ngi o‘n yillikda ushbu mikroorganizmlarning ayrim turlari ko‘pgina kasalliklarga sabab bo‘lishi kuzatilmoqda. Ular bemorlarda urogenital trakt sohasida qichishish, giperemiyta, shish, tvorogsimon ajralmalar va noqulaylik hissini keltirib chiqaradi. Ushbu mikroorganizmlarning ko‘payishi ko‘pgina omllarga bog‘liq. Masalan: jins, yosh, antibiotik va gormonal preparatlar qo‘llash, urogenital trakt anomaliyalari, endokrin tizim kasalliklari, xirurgik muolajalar va boshqalar.

Qin ham inson tanasining o‘ziga xos mikromuhitidir. Ushbu muhitdagi mikroorganizmlar tarkibi ayolning yoshi, yashash joyi, iqlim sharoiti, gigiyenik muolajalarning sifati va chastotasi, dori-darmon qabul qilishi (Masalan antibiotiklar ayoldagi gormonal o‘zgarishlarga bog‘liq) [2]. Ushbu mikromuhitning doimiyligini saqlashda urogenital mikrobiot muhim ahamiyatga ega. Inson tanasining turli muhitlarida yashovchi mikroorganizmlar (bakteriya, zamburug, viruslar) jamoasi mikrobiot deb nomlanadi. Bundan tashqari vaginal mikrmuhit tarkibidagi HPV sababli kelib chiquvchi bachadon bo‘yni intraepitelial neoplaziyasi rivojlanishida asosiy ro‘l o‘ynaydi. Sog‘lom vaginal mikrobiomda *Lactobacillus* miqdori ko‘p bo‘lib, u sut kislotasi ishlab chiqaradi va kislotali muhitni yaratadi. Bu vaginal muhit barqarorligini saqlashda va jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalarni oldini olishda yordam beradi. [1].

Bir qancha vaginal mikroorganizmlar vaginal shilliq tarkibidagi *Lactobacillus spp* ulushining kamayishiga olib keladi. O‘zgarilgan mikromuhit bachadon bo‘yni saratonining rivojlanishi uchun xavf omili hisoblanadi. Mikromuhitdagi bunday o‘zgarish mutsinni parchalaydigan fermentlar miqdorining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Natijada, bachadon bo‘yni epiteliyasi va endoservikal shilliq qavatini qoplaydigan

hujayralarda o‘zgarishlar yuzaga keladi [3-4].

Tadqiqot maqsadi: Urogenital kandidoz uchrash holatlarini klimakterik va reproduktiv yosh bo‘yicha tahlil qilish.

Materiallar va tadqiqot usullari: Ayollar surtmasini tozalik darajasini aniqlash maqsadida 50 ta klimakterik va 50 ta reproduktiv yoshdagi ayollarning “3 nuqta” surtmalari. Surtma olish uchun buyum oynasi, Gramm usulida bo‘yashni amalga oshirish uchun bo‘yoqlar to‘plami. Ushbu surtmalarni tahlil qilish uchun mikroskopiya xonasi. Natijalar jadvallar ko‘rinishida yozib olinadi va yosh bo‘yicha taqqoslanadi.

Natijalar Urogenital kandidoz zamburug‘lar turkumiga mansub mikroorganzmlar tomonidan kelib chiqadi. Dori-darmonlar, immun tizimi funksiyasi susayishi, gormonal fon o‘zgarishlari bu kasallik chastotasini oshirishi mumkin. Tadqiqotimiz uchun 37-oilaviy poliklinikadan 50 ta reproduktiv yoshdagi (15-44 yosh) va 50 ta klimakterik yoshdagi (45-55 yosh) ayollarni tanlab, ularning bachadon bo‘yni, qin va siyidik yo‘lidan olingan surtmalarini gramm usulida bo‘yab, mikroskopik tahlil o‘tkazdik. Tahlil davomida surtmalarda zamburug‘lar bilan bir qatorda yallig‘lanish elementlari, tayoqchasimon bakteriyalar miqdori, patogen kokklar mavjudligini ham e’tiborga oldik. Tekshirilgan reproduktiv yoshdagi ayollarning 10 tasi (20%) ida, klimakterik yoshdagi ayollarning 4 tasi (8%) ida urogenital kandidozga sabab bo‘luvchi zamburug‘larning spora va vegetativ shakllarini aniqladik. Ushbu bemorlarning aksariyatida zambrug‘ sporalari bilan birga normal bo‘lmagan mikrobiot o‘zgarishlarini kuzatdik.



Xulosalar: Urogenital kandidozning uchrash chastotasi reproduktiv yoshda yuqoriqoq bo‘lib, klimakterik davrga kelib bu ko‘rsatkich nisbatan kamayadi. Bu holatning reproduktiv yoshdagi turmush tarzi va gormonal fon bilan bog‘liqligi mavjud. Inson organizmida mikrobiot tarkibidagi mikroorganizmlar miqdor va sifat jihatdan o‘zgarmasligi lozim. Normal bo‘lmagan mikrobiot turli kasalliklarning rivojlanishida asosiy omil bo‘lishi mumkin. Inson tanasining turli mikromuhitlarida, xususan, urogenital sohada yashovchi mikroorganizmlar organizm salomatligi uchun muhim rol o‘ynaydi. O‘tkazilgan mikroskopik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, reproduktiv

yoshdagi ayollar orasida kandidoz uchrash darajasi klimakterik yoshdagilarga qaraganda yuqori bo‘lib, bu holat ko‘plab omillar, jumladan, gormonal fon, dori vositalarini qabul qilish va immun tizimi holati bilan bog‘liq. Tadqiqotda aniqlanganidek, mikrobiotdagi o‘zgarishlar nafaqat kandidoz, balki boshqa kasalliklar masalan, bachadon bo‘yni intraepitelial neoplasiyasi rivojlanishiga ham xavf tug‘diradi. Shu sababli, vaginal mikromuhit barqarorligini saqlash va mikrobiot balansini doimiy nazorat qilish ayollar salomatligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.** Forman D, de Martel C, Lacey CJ, Soerjomataram I, Lortet-Tieulent J, Bruni L, et al. Global burden of human papillomavirus and related diseases. *Vaccine*. 2012;30(Suppl 5):F12-23
- 2.** Kozieł M., Włodarczyk K., Wojton D.: Kształtowanie się mikrobioty jelitowej noworodków a konsekwencje zdrowotne (in) *Mikrobiologia medyczna i środowiskowa – wybrane zagadnienia*, Lublin, 2017, 14–27
- 3.** Nieves-Ramírez, M. E., et al. "Cervical squamous intraepithelial lesions are associated with differences in the vaginal microbiota of Mexican women." *Microbiology Spectrum* 9.2 (2021): e00143-21.
- 4.** Ritu, Wu, et al. "Evaluation of the associations between cervical microbiota and HPV infection, clearance, and persistence in cytologically normal women." *Cancer Prevention Research* 12.1 (2019): 43-56.